
Tibbiy jurnalistikaning jamiyatdagi o'ri, ta'siri va rivojlanish muammolari

Haytalieva Shahnoza Inomjonovna
shahnozahayitalieva@gmail.com

Mustaqil doktorant,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Ommaviy axborot vositalari jamoatchilikka tibbiy ma'lumotlarni yetkazishda muhim o'rin tutadi. Biroq, salomatlikka oid ma'lumotlarning aniqligi va ishonchlilik darajasi barcha manbalarda bir xil emas. OAVda e'lon qilinayotgan axborotlar bemorlarning sog'lig'iga oid qarorlariga – emlanishdan tortib, dori vositalarini tanlashgacha jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, bunday ma'lumotlar jamoatchilikning sog'liqni saqlash tizimi haqidagi umumiy fikr va munosabatini ham shakllantiradi. Salomatlikka oid ma'lumotlarni yoritish jarayonida yuqori darajadagi professionallik talab etiladi. Bu, avvalo, jurnalistik faoliyatda ishonchli manbalardan foydalanish, axborot manbai va uni qabul qiluvchi shaxsning maxfiyligi hamda mustaqilligini ta'minlashni nazarda tutadi. Noto'g'ri yoritilgan axborot asossiz umidlar yoki ortiqcha qo'rquv uyg'otishi, jamoat ongida salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur maqolada tibbiy jurnalistikaning jamiyatga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilingan. Shuningdek, sohada mavjud asosiy muammolar, sog'liqqa oid yangiliklarni tayyorlashda jurnalistlar duch kelayotgan qiyinchiliklar ham yoritilgan. Muallif sog'liqqa oid axborotlarni to'g'ri va samarali yetkazish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim chora-tadbirlarni belgilab bergan.*

Kalit so'zlar *Healthjournalism, jamoat salomatligi, COVID-19, ixtisoslashuv, salomatlik, internet nashrlar*

Роль медицинской журналистики в обществе, её влияние и проблемы развития

Хайталиева Шахноза Иномжоновна
shahnozahayitalieva@gmail.com

Соискатель учёной степени,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация *Средства массовой информации играют важную роль в донесении медицинской информации до широкой общественности. Однако уровень точности и достоверности сведений о здоровье существенно различается в зависимости от источника. Публикуемые в СМИ материалы могут оказывать значимое влияние на решения пациентов – от выбора вакцинации до применения лекарственных средств. Наряду с этим, подобные сведения формируют общее общественное мнение и отношение к системе здравоохранения. Освещение вопросов здоровья требует высокого уровня профессионализма. Это, прежде всего, предполагает использование в журналистской деятельности проверенных и надёжных источников, обеспечение конфиденциальности и независимости как источника информации, так и её получателя. Некорректно интерпретированные или неверно представленные данные способны вызвать неоправданные ожидания или чрезмерный страх, что нередко приводит к негативным*

последствиям для общественного сознания. В данной статье проанализированы положительные и отрицательные эффекты, оказываемые медицинской журналистикой на общество. Кроме того, рассмотрены ключевые проблемы, существующие в данной сфере, а также трудности, с которыми сталкиваются журналисты при подготовке материалов о здоровье. Автор определил ряд важных мер, необходимых для корректной и эффективной передачи медицинской информации.

Ключевые слова Медицинская журналистика, общественное здоровье, COVID-19, специализация, здравоохранение, интернет-издания

The role of health journalism in society: impact and development challenges

Haytalieva Shahnoza Inomjonovna
shahnozahayitalieva@gmail.com
Independent PhD researcher,
Uzbek State World Languages University

Annotation *Mass media play a crucial role in communicating medical information to the public. However, the accuracy and reliability of health-related content vary widely across different sources. Information disseminated through the media can significantly influence patients' health-related decisions – from vaccination choices to the selection of medications. At the same time, such information shapes public perceptions and attitudes toward the healthcare system as a whole. Reporting on health issues requires a high level of professionalism. This involves the use of credible and evidence-based sources, as well as ensuring the confidentiality and independence of both information providers and recipients. Misinterpreted or inaccurately presented health information may create unfounded expectations or excessive fear, leading to negative consequences for public awareness and behavior. This article analyzes the positive and negative impacts of health journalism on society. It also discusses key challenges within the field, including the difficulties journalists face when preparing health-related news. The author outlines essential measures necessary for the accurate and effective dissemination of medical information.*

Keywords *Health journalism, public health, COVID-19, specialization, healthcare, online media*

Kirish

Tibbiy jurnalistika bu salomatlik va tibbiyotga oid ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish jarayoni bo'lib, uning asosiy maqsadi axborotni tibbiyot yoki sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislariga emas, balki keng jamoatchilikka etkazishdir. Buning uchun turli axborot vositalari – bosma va onlayn

gazetalar, televidenie, radio, internetdan foydalaniladi.

Zamonaviy davrda ijtimoiy tarmoqlar, jumladan Twitter kabi platformalar, yangiliklarni ommaga etkazishda katta rol o'ynamoqda. Tibbiy va sog'liqqa oid masalalar ko'pchilikni qiziqtiradi, undan tashqari bu kabi ma'lumotlar odamlarning xulq-atvori va

sog'liqqa bo'lgan munosabatiga ta'sir ko'rsatadi.

Tibbiy jurnalistika nafaqat odamlarning axborotga bo'lgan ongli munosabatini shakllantiradi, balki tibbiy amaliyotlar, sog'liqni saqlash tizimidan foydalanish darajasi va davlat siyosatiga ham ta'sir ko'rsatadi (Keshvari va boshq., 2018; Leask va boshq., 2010).

COVID-19 pandemiyasi sharoitida millionlab odamlar hayotidagi eng katta sinovni yengib o'tishda yordam beruvchi ishonchli, faktlarga asoslangan jurnalistik ma'lumotlarga muhtoj bo'ldi. Ishonchli axborotga bo'lgan ehtiyoj hech qachon hozirgidek muhim va dolzarb bo'lmagan.

Global salomatlik inqirozi, xususan COVID-19 pandemiyasi davrida, o'z vaqtida va sifatli ma'lumotlarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlar virusning tarqalishini sekinlashtirish, uning salbiy ta'sirini kamaytirish va jamiyatni to'g'ri hamda mas'uliyatli harakatlarga undash uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (Higgins, 2020).

Raqamli texnologiyaning jadal rivojlanishi axborotga bo'lgan talabni va global aloqalarni kuchaytirdi. Har bir yangi texnologik qurilma kashf qilinishi bilan ommaviy axborot vositalari tomonidan yangiliklarni yaratish, tayyorlash va tarqatish jarayoni tubdan o'zgarmoqda (Lawson-Borders, 2011). Internet, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlar global media aloqalar hamda tibbiy ma'lumotlarni butun dunyo bo'ylab tarqatishda katta rol o'ynaydi. Facebook va Twitter kabi platformalarda ijtimoiy tarmoq orqali xabar berishning ortishi sog'liqqa oid ma'lumotlarning tez tarqalishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Kasalliklarni nazorat qilish markazi, Oziq-ovqat va dori-darmon ma'muriyati kabi global sog'liqni saqlash tashkilotlari ham jamoatchilikka yangi tibbiy va salomatlikka oid ma'lumotlarni yetkazishda internet va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanmoqda.

Shu bilan birga, COVID-19 pandemiyasi davrida asossiz yoki chalg'ituvchi xabarlarining

ijtimoiy tarmoqlar orqali tez tarqalishi jiddiy muammoga aylandi. JSST bu holatni "infodemiya" deb atadi – ya'ni noto'g'ri ma'lumotning favqulodda tez tarqalishi (Zarocostas, 2020).

Bu infodemiya qarshi kurash maqsadida JSST yangi axborot platformasini ishga tushirdi va dunyo bo'ylab ijtimoiy tarmoqlar bilan hamkorlikda ish olib bordi. Shuningdek, WhatsApp mobil messenjeri, JSST, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF) va Taraqqiyot dasturi (UNDP) bilan hamkorlikda "Coronavirus Information Hub" loyihasini ishga tushirdi. Ushbu tashabbusning maqsadi – dunyo bo'ylab milliardlab odamlarga salomatlikka oid ma'lumotni aniq va o'z vaqtida taqdim etish hamda yolg'on ma'lumot tarqalishining oldini olish edi (United Nations Development Programme, 2020).

Ommaviy axborot vositalari jamoat ishonchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi va insonning tibbiy madaniyatini yangiliklar orqali shakllantirishi mumkin. Masalan, xolesterinni pasaytiradigan "statin" dorisining nojo'ya ta'sirlari haqidagi ma'lumotlar Buyuk Britaniya OAVda keng yoritilganidan keyin ko'plab bemorlar ushbu dorini qabul qilishni to'xtatgan (Matthews va boshq., 2016; McCombs, 2013).

Statinlar yuqori xolesterinni davolash uchun ishlatiladi, ammo 2013 yil oktyabr oyida *British Medical Journal* jurnalining bir nechta maqolalarida (Abramson va boshq., 2013; Malhotra, 2013) ular qattiq tanqid qilingan. Ushbu maqolalarda ayrim bemorlar uchun statinlarning zarari foydasidan ko'ra ko'proq ekani ta'kidlangan. Shundan so'ng, bir guruh tadqiqotchilar OAVdagi muhokamalar odamlarning xatti-harakatiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga qaror qildi. Ular 2013 yil oktyabridan 2014 yil martgacha bo'lgan davrda Buyuk Britaniya tibbiy yozuvlarini tahlil qildilar. Natijada, statistik tahlillar ko'rsatishicha, o'rtacha olti oylik davrda taxminan 200 000 kishi statin qabul qilishni to'xtatgan (Matthews va boshq., 2016).

Shu tariqa, "statin" voqeasi tibbiy jurnalistikaning ahamiyatini namoyon qildi – tibbiy yangiliklar insonlarning sog'lig'i haqida qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yana bir misol – 1998 yilda britaniyalik shifokor Endryu Ueykfeld tomonidan *The Lancet* jurnalida chop etilgan maqola bo'lib, unda bolalardagi autizm bilan MMR vaksinasi (qizamiq, parotit va qizilchaga qarshi) emlovi o'rtasida sababiy bog'liqlik borligi haqida da'vo qilingan (Taylor va boshq., 1999). Bu maqola dunyo bo'ylab ota-onalar orasida katta qo'rquv uyg'otdi va vaksinalar xavfsizligiga shubhalar keltirib chiqardi. Natijada, ko'plab mamlakatlarda qizamiqqa qarshi emlanish darajasi keskin pasaydi (DeStefano va Chen, 1999). Garchi keyingi yirik tadqiqotlar Ueykfeldning natijalarini tasdiqlamagan bo'lsa ham ushbu qo'rquv va ishonchsizlik yillar davomida saqlanib qoldi. Faqat 2003 yilda britaniyalik salomatlik bo'yicha jurnalist Brayan Dir mazkur tadqiqotni chuqur o'rgangach, uning soxtaligi oshkor qilindi (Deer, 2011). Demak, ommaviy axborot vositalari vaksinaning xavfsizligi va samaradorligi to'g'risidagi jamoatchilik fikrini shakllantirishda ulkan rol o'ynaydi. Shuningdek, OAV ta'siri nafaqat aholiga, balki shifokorlar, siyosatchilar va sog'liqni saqlash mutaxassislarining qarorlariga, hatto bozor iqtisodiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi (Larsson va boshq., 2003).

Tibbiy yangiliklar aholining sog'lig'iga oid qarorlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda, jurnalistika va tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar aniq, to'liq va ishonchli axborot tayyorlash uchun javobgar hisoblanadilar. Biroq, ommaviy axborot vositalarida tarqatilayotgan salomatlikka oid ma'lumotlar ilmiy nashrlarda chop etilgan ma'lumotlar bilan taqqoslaganda, ko'p hollarda mazmun yoki samaradorlik jihatidan yetarlicha baholanmaydi (Bandiwadekar va boshq., 2014; Grilli va boshq., 2002).

Axborot manbasini to'g'ri ko'rsatish va uning ishonchliligini tekshirish jurnalist hamda

OAV muassasalarining bevosita vazifasi hisoblanadi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida ayrim OAVda gidroksiloroxin va remdesivir dorilari kasallikni davolashda samarali vosita sifatida tavsiya etilgani natijasida jamoatchilik orasida ularning zaruriyat bo'lmagan hollarda qo'llanilishi kuzatilgan. Shuningdek, nufuzli tibbiy jurnallar ham bahs-munozaralardan xoli bo'lmadi: *The Lancet* va *The New England Journal of Medicine* jurnallari taniqli bo'lmagan "Surgisphere" kompaniyasi ma'lumotlariga asoslangan maqolalarni chop etgandan so'ng bekor qilishga majbur bo'lgan, ammo bu ma'lumotlar allaqachon ko'plab OAV orqali tarqatilgan edi (Gallagher, 2020). Bunday tarzda ya'ni avvaliga da'vo qilib, keyin uni inkor qilishga majbur bo'ladigan tibbiy xabarlarning noto'g'ri tarqatilishi jamoatchilik uchun foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari nafaqat xabardorlikni oshiradi, balki odamlarni ma'lum bir salomatlik masalalari bo'yicha o'qitadi va tarbiyalaydi. Jamoatchilikni turli salomatlik muammolari haqida xabardor qilish va ta'lim berish orqali OAV sog'lom turmush tarzini shakllantirishga va ijobiy xulq-atvor o'zgarishlariga hissa qo'shadi (Abroms va Maibach, 2008). Sifatli tibbiy jurnalistikaning yana bir muhim afzalligi shundaki, u jamiyatda tarqalayotgan yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlarga qarshi kurashishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. COVID-19 pandemiyasi ilk marta Xitoyda qayd etilgan paytdan boshlab jurnalistlar virus bilan bog'liq xavflarni kamaytirishda muhim rol o'ynadi: ular yangi epidemiya o'choqlarini aniqladilar, himoya choralari haqida ma'lumot berdilar, soxta ma'lumotlarni fosh etdilar va hukumatlarning siyosatini javobgarlikka chaqirdilar.

Tibbiy jurnalistikadagi muammolar

Shu bilan birga, tanqidiy tahlilga asoslangan tibbiy jurnalistika mavjud muammolarni xolis yoritishga, aholda sog'lom axborot muhitini shakllantirishga yordam beradi.

Tibbiy yangiliklarni etkazish jarayonida jurnalistlar duch keladigan asosiy qiyinchiliklar turli mamlakatlarda deyarli o'xshash hisoblanadi. Umuman olganda, bu muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi: sog'liqni saqlash idoralarning axborot berish yoki jurnalistlar bilan uchrashishdan bosh tortishi, ortiqcha byurokratik to'siqlar, qisqa muddatli muhlatlar, yangilangan statistik ma'lumotlar yetishmasligi, statistik ma'lumotlarni talqin qilishdagi muammolar hamda jurnalistlarning tibbiyot yoki sog'liqni saqlash sohasida yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi (Veloudaki va boshq., 2014).

Jurnalistlar va OAV uchun yana bir jiddiy muammo – deyarli barcha mamlakat hukumatlarining so'z erkinligiga aralashuvi bo'lib, ular ko'pincha jurnalistlarni haqiqiy ma'lumotlarni tarqatishdan tiyilishga majbur qiladilar.

AQShda 22 oy davomida o'tkazilgan tadqiqotda 500 ta salomatlik haqidagi maqolalar tahlil qilingan bo'lib, natijada ma'lum bo'lishicha, 62–77% holatlarda xabarlarda sog'liqni saqlash xizmatlarining qiymati, afzallik va kamchiliklari yoki sifat darajasi yetarlicha yoritilmagan (Schwitzer, 2008). Ushbu tadqiqotda aniqlangan asosiy muammolardan biri – jurnalistlar uchun nashr maydonining cheklanganligi va ilmiy izlanishlar uchun vaqt yetishmasligi edi. Shuningdek, sog'liq va tibbiy mavzular bo'yicha tayyorgarlik kurslari hamda tibbiy statistika bo'yicha malaka oshirish imkoniyatlarining kamligi ham muammo sifatida qayd etilgan.

Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bo'lgani kabi Kanada ham ilmiy mavzular bo'yicha maqolalarni asosan umumiy yo'nalishdagi jurnalistlar tayyorlaydilar (Appiah va boshq., 2015). Garchi mazkur tadqiqot kichik namuna doirasida o'tkazilgan bo'lsa-da, olimlar ko'plab jurnalistlar tibbiy va ilmiy ma'lumotlarni asosan soha mutaxassislari orqali olishlarini aniqladilar. Shuningdek, ilmiy jurnalistika bo'yicha maxsus tayyorgarlik dasturlarini joriy etish va tadqiqot natijalariga osonroq olish imkoniyatini yaratish jurnalistlarni salomatlik va

ilm-fan mavzusida ko'proq yozishga rag'batlantirishi mumkinligi qayd etildi.

Yana bir muhim muammo – axborotni tezkor taqdim etish zarurati tufayli material sifatiga putur yetish holatidir. Shu kabi holatlar Evropa mamlakatlarida ham kuzatiladi. Bu yerda tibbiy yangiliklar manbalari asosan soha mutaxassislari, tibbiy jurnallar, ilmiy nashrlar va ba'zan shaxsiy tanishlar orqali shakllanadi (Dentzer, 2009). Salomatlik yangiliklari muharriri Dentzer tibbiy jurnalistika sohasida bir qator muammolarni ta'kidlab, quyidagicha yozgan:

Biroq bu sohada faqatgina sog'liqni saqlash mavzusida yozuvchi jurnalistlarning malakasini oshirish bilan cheklanmaslik kerak. Jurnalistika kasbi shuni ham talab etadiki, salomatlik haqidagi maqolalar faqat oq va qora ranglarda emas, balki turli bo'yoqlar orqali, murakkab voqelikning barcha jihatlarini qamrab olgan mukammal manzara sifatida yoritilishi lozim.

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, jurnalistlar duch keladigan asosiy muammolardan biri – ularning ilmiy va tibbiy bilimlari yetarli emasligidir. Bu holat tibbiy jurnalistlar kamida asosiy tabiiy fanlar bo'yicha bilimiga ega bo'lish zarurligini yana bir bor ko'rsatadi. Ko'p hollarda jurnalistlar sog'liqqa oid mavzuda chuqur ilmiy tadqiqot olib borishga vaqt yetishmasligidan shikoyat qilishgan va natijada ular axborot manbasi sifatida sog'liqni saqlash mutaxassislari tayanishgan. Biroq, ularga berilgan ma'lumotning aniqligi tekshirilmagan va bu axborot uchun jurnalistlar javobgar ham hisoblanmagan. Bu esa amaldagi tizimda muhim kamchilik hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, OAVda sog'liq haqidagi xabarlarni yaratishda jurnalistlar markaziy shaxslardir. Biroq ularning shaxsiy taxminlari va sub'ektiv talqinlari ko'p hollarda materialga kiritiladi, natijada noto'g'ri yoki adashtiruvchi xabarlar yuzaga keladi. Bunday holatlar ko'pincha maqolani o'quvchi uchun jozibador qilish maqsadida qo'llaniladi.

Yana bir muammo – ayrim kasalliklarning muayyan mamlakatga xos bo'lishini inobatga olmagan holda ularni umumlashtirib yoritishdir. Masalan, denge va bezgak kabi hasharotlar (vektorlar) orqali yuqadigan kasalliklar asosan Shri-Lanka, Singapur va Tailand kabi tropik davlatlarda uchraydi. Shu sababli sog'liqqa oid yangiliklarni mahalliy sharoitdan kelib chiqmagan holda yoritish jamoatchilik orasida noto'g'ri tushunchalar va chalkashliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Har bir ommaviy axborot vositasining muayyan auditoriyasi mavjud. Masalan, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, jurnalistlar ayniqsa ehtiyojmand yoki himoyasiz aholi guruhlariga – masalan, OITS bilan yashovchi shaxslar yoki muayyan irqiy guruhlarning salomatligiga oid ma'lumotlardagi tafovutlarni to'g'ri yoritishga tayyor bo'lmagan. Ular ko'proq o'z auditoriyasiga yoqadigan ma'lumotni berishni afzal ko'rganlar, natijada ayrim aniq nomuvofiqliklar chetda qolgan (Wallington va boshq., 2010). Bu tafovutlar COVID-19 pandemiyasi davrida yanada yaqqol ko'rindi: ko'pgina xabarlarda afroamerikaliklar koronavirus tufayli ko'proq halok bo'layotgani ta'kidlangan, biroq juda kam sonli OAV bu holatning asl sabablari — ya'ni mazkur jamoa sog'liqni saqlash xizmatlariga teng kirish imkoniyatidan mahrum ekani haqida yoritgan (Brooks, 2020).

Tibbiy jurnalistikaning jamoatchilikka ta'siri

Bugungi kunda odamlarning ko'pchiligi salomatlikka oid ma'lumotlarni internet orqali oladi. Biroq jamoatchilikning onlayn tibbiy ma'lumotlarni qanday baholashi juda murakkab masala bo'lib, bu sohada tadqiqotlar soni ham kam. Shu turdagi tadqiqotlardan biri – British Medical Journal nashrida chop etilgan ilmiy ish bo'lib, unda ishtirokchilardan internetdan uy sharoitida foydalanib, sog'lig'iga oid savollarga javob topish so'ralgan. Tadqiqot mualliflarining ta'kidlashicha, ishtirokchilar veb-sayt ishonchligini baholashda asosan uning

manbasi, professional dizayni, ilmiy yoki rasmiy ko'rinishi, til uslubi va foydalanish osonligiga e'tibor berganlar (Eysenbach va Köhler, 2002). Shu bilan birga, tadqiqotchilar aniqladilarki, internet foydalanuvchilari ma'lumot manbasini yoki uni kim va qanday tuzganini faol ravishda izlamaydilar. Bu tadqiqotning asosiy kamchiliklaridan biri – namuna hajmining kichikligi va tajriba laboratoriya sharoitida o'tkazilganidir.

Ommaviy axborot vositalarining ta'siri, ayniqsa, gripp mavsumida shifokorlarga murojaat qilish holatlari bilan bog'liq ravishda ham o'rganilgan. Trumbo 2012 yilda olib borgan tadqiqotida 2002–2008 yillar oraliqidagi gazetalarda gripp haqidagi maqolalar yoritilishi va aholi tomonidan shifokorlarga murojaatlar soni o'rtasidagi bog'lanishni tahlil qilgan. U 2002–2008 yillar orasida 32 ta gazetaning sarlavhalarini o'rganib, AQShning Kasalliklarni Nazorat Qilish Markazi ma'lumotlaridan foydalanib, grippga o'xshash kasallik hamda haqiqiy gripp holatlari bo'yicha shifokorga murojaat qilganlar sonini tahlil qilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "o'tgan haftadagi axborot yoritilishi darajasi grippga o'xshash alomatlar bilan shifokorga murojaat qilgan shaxslar sonidagi o'sish yoki kamayishning statistik jihatdan ahamiyatli qismini tashkil etadi" (Trumbo, 2012, 718). Bu holat haqiqiy gripp holatlari soni nazorat qilinganidan so'ng ham saqlanib qolgan. Ya'ni ommaviy axborot vositalaridagi axborotning yoritilish darajasi odamlarning shifokorga murojaat qilish qarorlariga ta'sir qiladi. Masalan, agar gazeta va televideniya gripp xavfi haqida ko'p xabarlar berilayotgan bo'lsa, odamlar ehtiyot bo'lib, alomatlar sezilsa, tezroq shifokorga borishadi.

Tadqiqotchi bu bog'lanishni haqiqiy gripp holatlari sonini hisobga olgan holda ham tekshirgan va shundan keyin ham ommaviy axborotning ta'siri saqlanib qolganini aniqlagan – demak, xabarlar soni odamlarning xatti-harakatini real epidemiologik holatdan mustaqil ravishda ham o'zgartira oladi.

Tadqiqotda bir nechta cheklovlar ham mavjud bo'lgan: birinchidan, barcha ma'lumotlar milliy darajada yig'ilgan, gripp esa hududiy xususiyatga ega bo'lgan mavsumiy kasallikdir. Ikkinchidan, barcha klinikalar bo'yicha grippga o'xshash alomatlar bilan kelgan bemorlar soni aniq emas, balki taxminan baholangan. Uchinchidan, modelning soddaligi tufayli, shifokorga murojaat qilgan shaxslar ommaviy axborotdagi xabarlariga qanchalik duch kelganini yoki umuman kelmaganini aniqlash mumkin bo'lmagan.

Sog'liqni saqlash mavzusida axborot tarqatish – bugungi jamiyatimiz uchun juda muhim vazifadir. Biroq bu jarayon ham jurnalistlar, ham axborot iste'molchilari uchun qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu tahliliy ko'rib chiqishda tibbiy jurnalistika sohasida hal etilishi zarur bo'lgan asosiy muammo va kamchiliklar aniqlandi. Sog'liqqa oid ma'lumotlarning noto'g'ri yoritilishi va sensasion qilib ko'rsatilishi, shaxsiy taxminlarning berilishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali soxta xabarlarining jadal tarqalishi, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor etish, media kompaniyalar va jurnalistlar tomonidan ochiqlik hamda homiylik haqida ma'lumotlarning berilmasligi shular jumlasidandir. Tadqiqotlar ko'rsatganidek, tibbiy jurnalistika jamiyatga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarning, jumladan internet, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida global aloqalar kuchaydi va salomatlikka oid yangiliklarni olish osonlashdi. Bu holat tibbiy jurnalistikaning samaradorligiga ijobiy ta'sir etgan bo'lsa-da, internetda nazorat va monitoringning qiyinligi tufayli yolg'on ma'lumotlar va shaxsiy ma'lumotlarni tarqatish muammosi yanada kuchaydi.

Bir nechta ilmiy tadqiqotlar (Keshvari et al., 2018; Moynihan et al., 2000; Ransohoff & Ransohoff, 2001; Smith et al., 2005) shuni ko'rsatadiki, jurnalistlar uchun qisqa muddatli vazifalar (dedlaynlar), sog'liqni saqlash idoralari hamkorlik qilmasligi va etarli tayyorgarlikning yo'qligi tibbiy jurnalistlarning faoliyatiga jiddiy to'siq bo'lmoqda.

Shu bois, ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikni so'nggi tibbiy yangiliklardan xabardor qilish va aholining tibbiy madaniyatini oshirishning ahamiyatini hisobga olgan holda, hukumat, sog'liqni saqlash tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari birgalikda aniq choralar ko'rish zarur. Bu choralar sog'liqni saqlash sohasidagi axborotning aniqligi, ishonchliligi va axloqiy me'yorlarga muvofiqligini ta'minlaydi.

Xulosa

Tibbiy jurnalistika bilan shug'ullanuvchi jurnalistlar uchun ilmiy yo'nalishdagi asosiy ta'lim (bakalavr darajasi) talabini joriy etish – bu sohadagi sifat va mas'uliyatni oshirishning muhim qadami bo'ladi. Shu bilan birga, tibbiyot mutaxassislari va akademiklar tibbiy jurnalistikadagi nosog'lom amaliyotlarni bartaraf etishda faol ishtirok etishlari lozim. Bu jarayon bir necha muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, ilmiy jamoatchilik va tibbiyot mutaxassislari OAVda chop etilayotgan sog'liqqa oid ma'lumotlar sifati ustidan nazorat o'rnatishda faolroq bo'lishlari kerak. Bu ma'lumotlarning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, tibbiy jurnalistika bo'yicha maxsus tayyorlov va malaka oshirish dasturlarini joriy etish juda muhim. Ayniqsa, jurnalistlar uchun ilmiy kommunikasiya usullarini o'rgatish hamda bu sohada ta'lim beruvchi akkreditatsiyalangan muassasani tashkil etish zarur.

Uchinchidan, mamlakat miqyosida yolg'on yoki adashtiruvchi tibbiy axborot tarqatishni oldini oladigan qonunchilik mexanizmlari ishlab chiqilishi kerak.

To'rtinchidan, jamoatchilikni noto'g'ri ma'lumotlardan himoya qilish uchun anik va samarali siyosatlar qabul qilinishi lozim.

Nihoyat, tibbiy jurnalistika sifatini oshirish va ishonchli axborot muhitini yaratish uchun sog'liqni saqlash organlari, olimlar, jurnalistlar, bosma va ijtimoiy OAV platformalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bu choralar amalga oshirilganda, mamlakatda sifatli, ilmiy asoslangan va mas'uliyatli tibbiy jurnalistika shakllanishiga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abramson, J. D., Rosenberg, H. G., Jewell, N., & Wright, J. M. (2013). Should people at low risk of cardiovascular disease take a statin? *British Medical Journal (Clinical Research Ed.)*, 347, f6123.
2. Abroms, L. C., & Maibach, E. W. (2008). The effectiveness of mass communication to change public behavior. *Annual Review of Public Health*, 29, 219–234.
3. Appiah, B., Gastel, B., Burdine, J. N., & Russell, L. H. (2015). Science reporting in Accra, Ghana: Sources, barriers and motivational factors. *Public Understanding of Science*, 24(1), 23–37.
4. Bandiwadekar, A. S., Shanbhag, N., & Puranik, M. P. (2014). Oral health information in English newspapers: A content analysis study. *Journal of Indian Association of Public Health Dentistry*, 12, 33–37.
5. Brooks, R. A. (2020, April). African Americans struggle with disproportionate COVID death toll. *National Geographic*. Retrieved June 5, 2020, from <https://www.nationalgeographic.com/history/2020/04/coronavirus-disproportionately-impacts-african-americans/>
6. Deer, B. (2011). How the case against the MMR vaccine was fixed. *British Medical Journal (Clinical Research Ed.)*, 342, c5347.
7. Dentzer, S. (2009). Communicating medical news – pitfalls of health care journalism. *The New England Journal of Medicine*, 360(1), 1–3.
8. DeStefano, F., & Chen, R. T. (1999). Negative association between MMR and autism. *The Lancet*, 353(9169), 1987–1988.
9. Eysenbach, G., & Köhler, C. (2002). How do consumers search for and appraise health information on the world wide web? Qualitative study using focus groups, usability tests, and in-depth interviews. *British Medical Journal (Clinical Research Ed.)*, 324(7337), 573–577.
10. Gallagher, J. (2020). Coronavirus: Malaria drug hydroxychloroquine 'does not save lives'. *BBC News*. Retrieved June 5, 2020, from <https://www.bbc.com/news/health-52937153>
11. Higgins, J. (2020, June 25). Covering COVID-19: Reports, resources, and tools. *Global Forum for Media Development*. Retrieved May 30, 2020, from <https://gfmd.info/reporting-on-covid-19-resources-and-tools>
12. Jackson, R. (2020, May 12). Coronavirus treatments: Remdesivir, hydroxychloroquine and vaccines for COVID-19. *CNET*. Retrieved June 5, 2020, from <https://www.cnet.com/how-to/coronavirus-treatments-remdesivir-hydroxychloroquine-and-vaccines-for-covid-19/>
13. Keshvari, M., Yamani, N., Adibi, P., & Shahnazi, H. (2018). Health journalism: Health reporting status and challenges. *Iranian Journal of Nursing and Midwifery Research*, 23(1), 14–17.
14. Larsson, A., Oxman, A. D., Carling, C., & Herrin, J. (2003). Medical messages in the media – barriers and solutions to improving medical journalism. *Health Expectations*, 6(4), 323–331.
15. Lawson-Borders, G. (2011). Making the connection: Digital media and intelligent networking. *Global Media Journal*, 11(19), 1–15.
16. Matthews, A., Herrett, E., Gasparrini, A., Van Staa, T., Goldacre, B., Smeeth, L., & Bhaskaran, K. (2016). Impact of statin related media coverage on use of statins: Interrupted time series analysis with UK primary care data. *British Medical Journal (Clinical Research Ed.)*, 353, i3283.

17. Moynihan, R., Bero, L., Ross-Degnan, D., Henry, D., Lee, K., Watkins, J., Mah, C., & Soumerai, S. B. (2000). Coverage by the news media of the benefits and risks of medications. *New England Journal of Medicine*, 342(22), 1645–1650.
18. Ransohoff, D. F., & Ransohoff, R. M. (2001). Sensationalism in the media: When scientists and journalists may be complicit collaborators. *Effective Clinical Practice*, 4(4), 185–188.
19. Schwitzer, G. (2008). How do US journalists cover treatments, tests, products, and procedures? An evaluation of 500 stories. *PLOS Medicine*, 5(5), e95.
20. Taylor, B., Miller, E., Farrington, C. P., Petropoulos, M. C., Favot-Mayaud, I., Li, J., & Waight, P. A. (1999). Autism and measles, mumps, and rubella vaccine: No epidemiological evidence for a causal association. *The Lancet*, 353(9169), 2026–2029.
21. Trumbo, C. (2012). The effect of newspaper coverage of influenza on the rate of physician visits for influenza 2002–2008. *Mass Communication and Society*, 15, 718–738.
22. United Nations Development Programme. (2020, March). COVID-19: WHO, UNICEF and UNDP partner with WhatsApp to get real time health information to billions around the world. Retrieved August 16, 2020, from https://www.undp.org/content/undp/en/home/news-centre/news/2020/COVID-19_WHO_UNICEF_UNDP_Partner_with_WhatsApp_to_Get_Real_Time_Health_Information_to_Billions_around_the_World.html
23. Veloudaki, A., Zota, D., Karnaki, P., Petralias, A., Saranti Papasaranti, E., Spyridis, I., & Linos, A. (2014). Reporting health in Europe: Situation and needs. *Journal of Communication in Healthcare*, 7, 158–170.
24. Wallington, S. F., Blake, K. D., Taylor-Clark, K., & Viswanath, K. (2010). Challenges in covering health disparities in local news media: An exploratory analysis assessing views of journalists. *Journal of Community Health*, 35(5), 487–494.
25. Zarocostas, J. (2020). How to fight an infodemic. *The Lancet*, 395(10225), 676.